

Farg'ona shaxridagi 34-sonli umumta'lim maktabi

Mavzu: TUYOQLI
SUTEMIZUVCHILAR

Tayyorladi: Xolmirzayeva
Jumagul Hamdamovna

Farg'ona 2020

Reja


- 1. Juft tuyoqlilar turkumi
 - A) Kavsh qaytaruvchi juft tuyoqlilar
 - B) Kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqlilar

- 2. Toq tuyoqlilar turkumi

O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH



1. Kurakoyoqlilar suvda yashashga qanday moslashgan?
2. Tyulen qanday hayot kechiradi?



3. Dengiz mushugi qanday hayot kechiradi?
4. Kitsimonlar suv muhitiga qanday moslashgan?




5. Ko'k kit qanday oziqlanadi?
6. Delfinlar qanday hayot kechiradi?

Juft tuyoqlilar turkumi - Artiodactyla

- Juft tuyoqlilarning barmoqlari bir yoki ikki juft bo‘lib, tuyoqlar bilan qoplangan.
Juft tuyoqlilar –
- kavsh qaytaruvchi
- Kavsh qaytarmaydigan guruhlarga bo‘linadi.

Kavsh qaytaruvchi juft tuyoqlilar

- Oyoqlari ancha uzun, oshqozoni to'rt bo'lmali, o'simlikxo'r hayvonlardir.
- Odatda, o'simlik tarkibida qiyin hazm bo'ladigan kletchatka ko'p bo'ladi.
- Kavsh qaytaruvchilar oshqozonida yashaydigan mayda mikroskopik bakteriyalar va infuzoriyalar kletchatkaning hazm bo'lishiga yordam beradi.



Kavsh qaytaruvchi juft tuyoqlilar



Kavsh qaytaruvchi juft tuyoqlilarga


- Sigir, qo‘y, echki, zubr, sayg‘oq, jayron, bug‘u va boshqa ko‘pchilik juft tuyoqlilar kiradi.
- Ularning boshidagi bir juft muguz shoxlari butun hayoti davomida o‘sib boradi.
- Bug‘u va los kabi hayvonlarning shoxlari har yilda almashinib, o‘rniga yangisi o‘sib chiqadi
- Kavsh qaytaruvchi juft tuyoqlilardan Buxoro bug‘usi (xongul) Qizilqum qo‘riqxonasida va Termiz yaqinidagi Payg‘ambar orolida boqilmoqda.
- Ustyurt dashtida sayg‘oq uchraydi.



Kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqlilar

- qoziq tishlari kuchli rivojlangan, oshqozoni boʻlmalarga boʻlinmagan; boʻyin, oyoqlari va dumi kalta.
- Ularga toʻngʻiz (yovvoyi choʻchqa) va suv aygʻiri (begemot) kiradi

Kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqlilar




113-rasm. Kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqlilar:

1 – suv ayg'iri (begemot); 2 – 4 to'ng'izlar; (2 – erkagi; 3 – urg'ochisi; 4 – bolasi)

To‘ng‘iz va begemot

- To‘ng‘iz ancha yirik hayvon; tanasining uzunligi 180 sm gacha, vazni 200–240 kg keladi.
- *To‘ng‘iz* Yevropa va Osiyo qit‘asida tarqalgan;
- O‘zbekistonda tog‘li joylarda va to‘qaylarda uchraydi.
- Begemot tropik Afrikada tarqalgan.


Toq tuyoqlilar turkumi - Perissodactyla



Bu hayvonlarning oyog'ida bitta yoki uchta barmog'i bo'ladi,



biroq faqat uchinchi barmog'i kuchli rivojlangan. Hayvon tanasining og'irligi, asosan, shu barmoqqa tushadi.



Oshqozoni sodda tuzilgan, ammo ko'richak o'simtasi juda uzun bo'ladi.



114-rasm. Toq tuyoqlilar:

1 — hind karkidoni; 2 — Prjevalskiy oti; 3 — qulon; 4 — zebralar

Toq tuyoqlilar turkumi

- Toq tuyoqlilar yalanglikda yashaydigan hayvonlardir
- Ularga ot, eshak, karkidon, tapir, zebra va qulon kiradi
- *Yovvoyi Prjevalskiy oti* XX asr oʻrtalarigacha Markaziy Osiyo (Moʻgʻuliston va Xitoy) choʻllarida yashagan;
- hozir qoʻriqxonalar va hayvonot bogʻlarida saqlanib qolgan.
- Tanasining uzunligi 230 sm, balandligi 130 sm, vazni 300 kg keladi

Toq tuyoqlilar turkumi




- Xonaki otlar qirilib ketgan yovvoyi ot — **tarpandan**,
- xonaki eshak esa **Afrika yovvoyi eshagidan** kelib chiqqan
- *Tapirlarning* bir necha turlari Janubiy Amerika va Janubi-Sharqiy Osiyodagi oʻrmonlarda yashaydi.
- **Karkidon** tropik Afrika va Janubiy Osiyoda tarqalgan.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar



Tuyoqli sitemizuvchilar qanday tuzilgan?




Juft tuyoqlilar uchun xos belgilar nimadan iborat?



Kavsh qaytaruvchilar oshqozoni qanday tuzilgan?



Kavsh qaytarmaydigan juft tuyoqlilar qanday tuzilgan?



Toq tuyoqlilar yashash muhitiga qanday moslashgan?

□ E'TIBORINGIZ UCHUN
RAXMAT